


# PEDAGOGIK MAHORAT

MS  
2022



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

## MUNDARIJA

Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta’lim muassasalarini talabalarida ijtimoiy faoliytkni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	7
Ширинбай ОЛИМОВ, Юлдуз САЙДОВА. Талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг йўналишлари .....	10
Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida .....	16
Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии неразрывности обучения основанной на педагогической таксономии .....	20
Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari .....	24
Кобилжон АБДУЛЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования.....	28
Shabon FARMONOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	31
Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана	36
O‘lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari .....	39
Manzura OCHILOVA. O‘quvchilarning ma’naviy barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida al- Buxoriy ta’limotining o‘rni .....	42
Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning “Ofarinnoma” asarida ma’naviy- axloqiy tarbiya masalalari .....	45
Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do‘stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni .....	49
Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanganlik dinamikasi .....	54
Dildora TOSHEVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o‘rni va ahamiyati .....	59
Olimjon AHMADOV. Taraqqiy parvarlarning Buxoroda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g‘oya va qarashlari .....	63
Oybek ORTIQOV. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida tabalalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	66
Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniyning axloqiy qarashlari .....	70
Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari .....	76
Lola ELIBOYEVA. Bo‘lajak o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari .....	80
Feruza RAMAZONOVA. Bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy e’tiqod tuyg‘usini shakllantirish imkoniyatlari .....	86
Ma’rifat UMUROVA. Bo‘lajak o‘qituvchilar ma’naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o‘rni .....	89
Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta’limotining tarbiyaviy ahamiyati .....	93
Mirjon AMONOV. O‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari .....	96

---

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI EKOLOGIK TARBIYALASHDA TABIIY  
FANINING O'RNI VA AHAMIYATI**

---

*Maqolada atrofimizdagи olam darslari orqali o'quvchi yoshlarni ekologik tarbiyalash metodlari va metodik ta'minoti, o'quvchi yoshlarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari, Sciense milliy dasturida tabiy fanlarni o'qitish nazariyasi haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Talim prinsiplari, davlat ta'lim standarti, ekologik tarbiya, atrofimizdagи olam, Sciense milliy dastur, milliy qadriyat, ekologik madaniyat, kompetensiya.*

*В статье представлена информация о методах и методическом обеспечении экологического воспитания школьников через уроки окружающего мира, способах формирования базовых компетенций учащихся, теории обучения естественных наук в национальной программе «Sciense».*

**Ключевые слова:** *Принципы образования, государственный образовательный стандарт, экологическое воспитание, окружающий мир, национальная программа «Sciense», национальные ценности, экологическая культура, компетентность.*

*The article provides information on the methods and methodological support of environmental education of students through the lessons of the world around us, ways to form the basic competencies of students, the theory of teaching natural sciences in the national program Sciense.*

**Key words:** *Principles of education, state educational standard, environmental education, the world around us, Sciense national program, national values, ecological culture, competence.*

“Maktab muammosiga birinchi darajali masala deb qarashimiz lozim. Maktab – faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o’rgatuvchi dargohga aylanishi zarur.” - Sh.M. Mirziyoyev [1].

Hammamizga ma'lumki, ta’lim samaradorligini oshirish jamiyatimizda bo‘layotgan tub islohatlarning muhim omili ekanligi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalar singari ta’lim sohasida ham davlat va hukumat tomonidan bir qancha ijobjiy va samarali ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa xalq ta’lim tizimida bo‘layotgan yangiliklar va islohotlar bunga yorqin misoldir. Umumta’lim maktablarida ta’limni isloh qilish ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish, ta’lim metodlarini zamon talabiga javob beradigan vositalar uyg‘unligida qo’llash, yoshlarning kriativlik kompetensiyasini osirish, milliy mafkurasini mustahkamlash, milliy qadriyatlар ruhiда tarbiyalash orqali amalga oshiriladi.

Umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog, yoshlarni o’zi ta’lim berayotgan faniga nisbatan mehr- muhabbatini oshirishi, o’sha sohani puxta o’rganishi va o’zi mustaqil shu sohada ijodiy ishlarni amalga oshiruvchi (ixtirochi , yaratuvchi), innovatsion g’oyalarni yaratuvchisi sifatida tarbiyalamog‘i lozimdir. Bugun bizning yoshlari jahonda barcha sohalar singari ta’lim sohasida ham o‘z so’zini aytay olyabdi. Birgina misol sifatida mana bir necha yildan byyon matematika sohasida xalqaro matematika fan olimpiyadalarida nufuzli o’rinlarni egallab kelayotgan O‘zbek yoshlari mamlakatimizda prezentimiz ta’kidlaganlaridek “Uchinchi renesans”ni yarata oladilar. Faqatgina biz mana shunday yoshlarni safini kengaytirmog‘imiz, ularga o‘ziga nisbatan ishonchni yuqori qilib tarbiyalamog‘imiz, vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan komil inson shaxsini shakllantirmog‘imiz lozimdir.Buning uchun biz pedagoglar ta’limda innovatsion metodlarni qo’llamog‘imiz, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim metodlarini to‘g‘ri tashkil etmog‘imiz lozim . Zero prezentimiz Shaykat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Maktabda o’qitish metodikasi o’zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o’zgarmaydi.

Ta’lim metodlarini fan predmetlari mazmunidan kelib chiqqan holda, ta’lim oluvchining yosh va individual hususiyatlarini inobatga olgan holda, qo’llash ta’lim jarayonida samardorlikni oshiradi.

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida tabiiy fanlarni o’qitish bugungi kunda aniq fanlarga nisbatan 2 darajali fan sifatida qarab kelimoqda. Bu esa yoshlarni shakllanayotganligidan dalolatdir. Zero atoqli pedagog V.A. Suxomlinskiy «Balolarga jomim fidо» asarida «Men bolalar «Alifbe»ni ochib, birinchi so’zini g’ijjalab o’qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob-tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim» deb ta’kidlagan. Bundan shuni anglamoq joizki o’quvchi yoshlarnimiz harfni tanib savod chiqarib, matematik savodxonligi oshishi bilan bir

qatorda tabiatni anglamog'i, unga ongli ijobjiy ijtimoiy munosabat bildirishni bilmog'i lozim, bir so'z bilan aytganda ekologik ongi va ekologik bilimlari shakllanmog'i joiz.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta'limga fanlarini o'qitishning uzlusizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda umumta'limga maktablarida ta'lim sifat va samaradorligini yana rivojlantirish uchun Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-aprel 187-son qaroriga muvofiq Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tabiiyot va geografiya fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilarda atrofimizdagagi olamga, o'z Vataniga muhabbat hissini uyg'otish,
- tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash malakalarini shakllantirish,
- tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi,
- hozirgi zamон talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarda foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

DTSda ko'rsatib o'tilgandek o'quvchilarda tabiiyot va geografiya fanga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan va bu kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

Tayanch kompetensiyalar elementlari quyidagilar:

- Kommunikativ kompetensiya:
- Axborotlar bilan ishlash kompetensiysi: :
- O'zini o'zi rivojlanish kompetensiysi:
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiysi:
- Milliy va umummadaniy kompetensiya:
- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiysi:
- Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarini kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiysi
- Geografik ob'ektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiysi.
- Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiysi.
- Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiysi.

Boshlang'ich sinfdagi "Atrofimizdagagi olam", "Tabiatshunoslik" fanlarini o'zlashtirishda nazariy bilimlar berish orqali o'quvchilarda dastlabki tayanch kompetensiyalar shakllanadi. Ya'niy ular mavzuga oid ma'lumotlarni gapirib berish, tabiat va uning hodisalarini aytib bera olish, turli manbalarning ma'lumotlaridan foydalana olish, o'ziga zarur ma'lumotlarni o'zlashtira olish, kun tartibiga amal qilish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullanish, maktabda, ko'chada, jamoat transportida yurish qoidalariiga roya qilish, sinfdagi, maktabda, oilada, mahallada o'tkaziladigan tadbirlerda faol ishtirot etishi, o'zaro munosabatlarda muomala madaniyatga ega bo'lishi, o'zi yashaydigan joy tabiatini bilish; uyi, maktabi, turar joyini qadrlash, milliy bayramlarni bilish va tadbirlerda ishtirot etish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi.

Shaxsnинг axloqiy rivojlanishida tabiat bilan muloqotda bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Tabiatga mehr qo'yish, uning barcha boyliklarini asrash, muhofaza qilish ekologik tushunchalar shakllanishiga turki bo'ladi. O'quvchida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos hususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirish xususiyati.
  2. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalar mazmuni, shakli va hajmining aniqlik hususiyati.
  3. O'qituvchining o'quvchida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda pedagogik mahoratga egalik hususiyati
  4. O'quvchida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish davrlari, o'zlashtirish darajalari hamda qiziquvchanlik hususiyati.
  5. Ekologik ta'lim - tarbiya uzyvligi.
  6. Ekologik va pedagogik omillarning o'zaroborlik hususiyati.
- O'quvchida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos hususiyatlari talablar asosida aniqlanadi.
- a) O'quvchilarning yosh hususiyatlarini o'rganish;

b) O'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari asosida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish uchun muhit yaratish;

v) Fanlararo ekologik tarbiyaga oid materiallardan foydalanish.

Biz o'qish, ona tili, odobnama, tarbiya darslarida o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanamiz biroq tabiatni tanishtirish unga axloqiy, madaniy jihatdan munosabatda bo'lishda bu boy me'rosimizdan deyarli foydalanmaymiz. Xalq og'zaki ijodi o'quvchi yoshlarning nafaqat nutqini o'stirish, yoki dunyoqarashini oshirishi mumkin, balki jamiyat va tabiat hodisalariga ongli munosabatini shakllantirishga undaydi. Shunday ekan biz bolalarni ekologik tarbiyalashta milliy qadriyatlarimizga tayangan holda "Atrofimizdag'i olam" darsligining mazmundorligini boyitish maqsadida xalq og'zaki ijodidan foydallanishimiz zarur. Sababi darsliklarda faqatgina jonli va jonsiz tabiatni, koinotni, o'simliklar va hayvonot olamini nazarini jihatdan o'rgatish dasturlashtirilgan. Shuning uchun ham o'quvchilar faqatgina ularni nazarini jihatdan o'rganadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni fanlararo shakllantirish lozim. Fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarga ekologik tarbiya beradigan bo'lsak ularning bilimlari quyidagicha birlashtiriladi.

1. Jonli, jonsiz tabiatning o'zaro aloqadorligi va farqini anglaydilar;

2. Tabiat jismrlari va ularning hususiyatlari;

3. Tabiat komponentlari va o'zaro aloqadorligi;

4. Tabiat hodisalari va ularning ta'siri;

5. Koinot va uning Yer sayyorasi bilan aloqadorligi;

6. O'zbekiston tabiatni va uni muhofaza qilish;

7. Atrofimizdag'i tabiatga oqilona munosabatlarni shakllantirish;

8. Hayvon va o'simliklar ishtirokida mashq va masalalar yechish, rasm va haykalga ishlov berish, ijodiy topshiriq (ularga oid ertak, topishmoq, hikoya va maqollarni o'rganish) va muammoli savollarni hal etishi.

Atrofimizdag'i tabiat haqidagi bilimlar o'quvchining har tomonlama kamol topishiga va tarbiyalashiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Darhaqiqat, yon atrofimizga bizni o'rab turgan ona tabiatimizga qancha mehr qo'ysak, vatanimiz kelajigiga shunchalik g'amxo'rlik qilgan bo'lamiz.

O'quvchilarini tabiat bilan yaqindan tanishtirish sodir bo'layotgan tur xil ekologik hodisalardan voqif qilish bugungi kunda pedagogika nazariysi va amaliyotida, boshlang'ich ta'limda muhim yo'naliшhga aylanmoqda. Bu yer yuzidagi og'ir ekologik vaziyatlarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Bunday holatning yuzaga kelish sabablaridan biri aholi katta qismining ekologik savodsizligi va uning tabiatga ta'siri natijasini ko'ra olmasligidir. Shuning uchun ham Yunesko, Yunisef va boshqa tashkilotlar tomonidan sayyoramizda yashovchilarining ekologik ta'limning mazmuni va muddati masalasi ilgari surilmoqda. O'quvchilarining ekologik ta'limida tabiiy ilmiy bilimlarni egallashda eng muhim bosqich boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Boisi, insонning tabiatga, kelajakka munosabati shu davrdan boshlanadi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda ekoliyiga haqida dastlabki tasavvurlarni berishda "Atrofimizdag'i olam" darslari asosiy o'quv fani bo'lib, hisoblanadi. Bu o'quv fanlari ekologik madaniyatni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarini tabiat bilan yaqindan tanishtirish, sodir bo'layotgan turli xil ekologik hodisalardan muntazam xabardor qilish maqsadida darslarni noan'anaviy metodlarda tashkillashtirib o'tkazish niyoyatda muhim hisoblanadi. Mening nazarimda, darslarda "Asrang ona tabiatni", "Bir makon-bir oila", "Onajonim tabiat" kabi kichik bellashuvlar va ma'naviy tadbirlar "Ekologik muammo va uning yechimi" mavzusida davra suhbatlarini tashkil qilish ham o'zining ijobjiy samarasini berishi aniq. Negaki, noan'anaviy tarzda tashkil qilingan bunday darslar yoki tadbirlar o'quvchilar dunyoqarashini kengayishi va tabiatga bo'lgan munosabating shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari darslarni sifat va mazmundorligini oshirishda dars jarayonida interaktiv metodlardan masalan: "O'rtog'ini top", "Issiq kartoshka" "Ko'z boylag'iz", "Bog'bon", "Krasvord", "Rebus" kabi ta'limiy o'yinlardan, "Aqliy hujum", "Nilufar gul'i", "Venn deogrammasi", "T" sxemasi, "Assisment" "Baliq skillet", "Qanday", "Adolat ko'chasi" kabi grafik organayzer va muammoli usullardan foydalanilsa maqasdeg muvofiq bo'ladi.

Yugoridagi kabi darslarni faqatgina sinfxonasiga o'tkazmasdan, tabiat qo'yniga, maktablarda shakllantirilgan "Jonli tabiat burchagida", bog' va issiqxonalarga, shahar markazlarida mavjud bo'lgan hayvonot bog'lariga yoki fermalarda, park va qadamjolarga sayohatlar davomida shakllantirish maqsadga muvofiқdir. Zero, tabiat haqida gapirayotgan o'quvchi o'zi ham tabiatning bir bo'lagi ekanligini bevosita his qilishi juda muhim. Ayni shunday darslar jarayonida o'quvchilarda tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklari haqida dastlabki tushunchalar hosil bo'ladи. Darslarni ochiq osmon ostida

o'tkazish o'quvchini atrof olam haqida fiktlarini bir qadar kengaytiradi va boyitadi. Chunki, kitobda o'qigan daraxtingin tanasiga qo'l qo'yishi, sur'atini ko'rgan gulning muattar hidini tuyishi yoki qayrilgan butaga tirkovich qo'yishi, iliq nurlari bilan erkilayotgan quyosh taftimi tuyishi orqali o'quvchi tabiat bu ona ekanligini to'liq his qiladi. So'zlarimni mashhur pedagoglarning quyidagi fikrlari bilan dalillashim mumkin: "Eng yaxshi mazmun ham o'quvchilarining faoliyatiga qo'shilgandagina ularning ongiga yetib boradi" yana ham oddiyroq qilib aytganda o'quvchi o'qituvchi hikoya qilib bergenidan ko'ra o'zi anglab yetgan voqeа - hodisalarni ko'proq esda saqlab qoladi. Shu o'rinda "Bir urug' tarixi" hikoyasini esga olishni o'zinga joyiz deb bildim. Xullas bir kuni o'qituvchi guruh o'quvchilarini yig'ib ularni ikki kichik guruhga bo'libdi va ularga bir donadan gul urug'i beribdida shunday debdi: -Sizga bir oy muhlat kimming tubagida gul katta va chiroyli bo'lib o'ssa o'sha guruh g'olib bo'ladi debdi. Shu kundan boshlab ikkala guruh jamoalarini urug'ni parvarish qila boshlabdi unga suv berishibdi ochiq havoda quyosh nuruda qo'yishibdi. Biroq ular qancha parvarish qilmasini gul unib o'smabdi. Kunlardan birida ikkinchi guruh sardori tubagidagi urug'ni almashtirib qo'yibdi. Oradan bir oy o'tib muhlat tugagandan so'ng o'qituvchi ikkala guruh jamoasidan ham gullarini olib kelishimi so'rabi. Birinchi guruhning tubagidagi gul o'smagan, ikkinchi guruhning tubagida esa chiroyli ochilib turgan gul bor edi. Buni ko'rgan o'qituvchi jilmayib "Bu musobaqaqa birinchiligi guruh jamoasi g'olib bo'ldi"-dedi. Shunda barcha ikkinchi guruh jamoasi hayratlanib o'qituvchining qaroriga norozilik bildiradi. Shunda o'qituvchi:- "Men ikkala guruhga ham qaynatilgan urug'dan bergandim bu urug' har qancha parvarish qiling ko'karmaydi. Siz g'irromlik qilib urug'ni almashtirgansiz. Shuning uchun bu musobaqaqa to'g'ri va halol ishlagan jamaoa g'olib bo'ladi"-dedi. O'qituvchining bu gapidan so'ng ikkinchi guruh sardori qilgan ishini tan olib guruh jamoasidan va o'qituvchidan kechirim so'rab uyalib sinf xonasidan chiqib ketadi". Hikoyadan shuni xulosa qiladigan bo'lsak biz o'simliklar olamini nafaqat bilishimiz balki uni qanday ko'paytirishimiz va ularning foydali tomonlarini bilishimiz va balurni bolalarga to'g'ri yetkazishimiz lozim. O'z maqsadi yo'lida insonlar qing'ir ishni qilmasligini bolalarga ham uqtirib o'tish lozim.

Aslida ham o'qituvchilarning vazifasi o'quvchini atrofda bo'layotgan o'zgarishlarni tez va to'g'ri idrok etish va vaziyatga muvofiq xulosa yasashga yo'naltirishdir. Tabiatdagi barcha narsalar giyohdan tortib oddiy zarragacha olib borilgan darslar va mashg'ulotlarni qay darajada samara berayotganini tekshirish uchun o'qituvchi tomonidan turli xil savol - javoblarni ham imkon qadar ko'rgazmali tarzda tashkilashtirishiga bog'liq. Masalan, daraxt tasviri shakllantirilgan ko'rgazmada mevalar shaklidagi kartochkalar orqasida mavzuga oid turli savollar yashiringan bo'ladi. O'quvchilar bu savollarga bog'bon yoki hosilni yig'uvchi dehqon obrazida mevalarni terib oladi va har bir meva ortidagi savollarni guruh jamoasi bilan birgalikda javob berishga harakat qiladi. Aksincha, savolga javob topolmagan guruh a'zosi jamoami tark etadi.

Umuman olganda, tabiiy fanlarni o'qitishda atrofimizdagi olam darsligi didaktik metodlar asosida unchalik boyitilmagan. Yuqorida keltirilgan metod va vositalarni qo'llagan holda uning mazmundorligini boyitsak, o'quvchi-yoshlarning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi va sciense fani jarayonida o'quvchining mantiqiy fikrashi, kreativligi shakllantiriladi va TIMSS xalqaro baholash mezonlari asosida bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantililadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи [nutqi](#). 30.09.2020 yil
- 2.Prezidentning ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektor dagi nutqi. 30.10.2020 yil
3. To'xtayev A. Rang-barang olam. – Toshkent: Yozuvchi, 2002. – 48 b.
- 4.Tabiiyot va geografiya fani o'quv dasturi.T.-2017.